

UDK: 619:636:616.988.1:616-002

VIRUSLI DIAREYA KASALLIGINING TARQALISHI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI

Shapulatoва Z.J.

Ruzikulova U.X.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyati chorvachilik xo'jaliklarida virusli diareya kasalligining tarqalish dinamikasini o'rganish maqsadida qoramollardan olingan qon zardoblari laboratoriya sharoitida IFT yordamida tekshirish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Diareya, virus, IFT, abort, antigen, antitelo, reproduktiv, zardob.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda chorvachilikning qoramolchilik tarmog'i juda keng rivojlangan bo'lib, aholini go'sht, sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda bu sohani rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ammo hayvonlar orasida uchraydigan ayrim virusli kasalliklar bu sohani rivojlantirishga biroz to'sqinlik qilmoqda. Jumladan qoramollar virusli diareya kasalligi veterinariya fani va amaliyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Virusli diareya kasalligi qoramollarda nafas olish oshqozon ichak va reproduktiv a'zolarini zararlanishi tufayli chorvachilik sanotiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Tarqalish darajasi kuz, qish va bahor oylarida eng yuqori bo'lib, yozda nisbatan kam kasallanish holatlari kuzatilgan. Kasallik qo'zg'atuvchining asosiy manbai kasal va kasaldan tuzalgan hayvonlar bo'lib, virus siydik, najas, so'lak, yallig'lanish o'choqlaridan ekssudat bilan tashqi muhitga tarqaladi. Kasallik epizootiya shaklida davom etadi, kasallanish podadagi hayvonlarning 10 dan 100% gacha, o'lim darajasi 10-90% ni tashkil qiladi. Diagnostik epizootologik ma'lumotlar, klinik belgilar va laboratoriya natijalari asosida amalga oshiriladi. Kasallikdan keladigan iqtisodiy zararning kattaligi sababli ushbu kasallikning tarqalishini o'rganish va kasallikka diagnostik qo'yish muhim hisoblanadi.

Material va metodlar. Ilmiy tadqiqotlar ishlari 2021-2024 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Mikrobiologiya, virusologiya immunologiya kafedrasida, Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Hududiy diagnostika laboratoriyasida va Samarqand viloyati Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari havfsizli Samarqand viloyatining 5 ta tumaniga qarashli fermer xo'jaliklarida olib borildi. Epizootologik, klinik va laboratoriya tekshirish usullaridan foydalandik. Jami 97 bosh qoramollardan virusli diareya kasalligini aniqlash maqsadida qon namunalari olindi. Olingan qon zardobi namunalari Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Hududiy diagnostika laboratoriyasida diareya virusiga qarshi antitelolarni aniqlash uchun Virusli diareya-antitela-IFA-BEST-Vet diagnostik test to'plami yordamida uni qo'llash yo'riqnomasi bo'yicha IFT usulida tekshirildi.

Buning uchun laboratoriya sharoitida reagentlarni tahlil uchun tayyorladik. Tekshirishdan oldin IFT to'plami ochilmagan holda muzlatkichda +4 +8⁰ C haroratda saqlanganligi tufayli IFT to'plami hona haroratida +20 +25⁰ C da 30 daqiqa saqlandi. Laboratoriyada 97 bosh qoramollardan 3-5 mldan olingan qon namunalaridan zardoblari ajratildi. Tekshirish jarayonida qon zardobi namunalaridagi antitelo diareya virusi antigeni bilan bog'lanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Virusli diareya kasalligining epizootologiyasini o'rganish bo'yicha Samarqand viloyti xo'jaliklarida qoramollarda tadqiqotlar olib bordik. Xo'jaliklarda epizootologik va klinik tekshirishlar natijasida quyidagilar aniqlandi. Kasallik manbai bo'lib asosan kasal va kasaldan sog'aygan virus tashuvchilar xizmat qiladi. Kasal hayvonlar virusni tashqi muhitga so'lak, ko'z yoshlar, siydik va najas orqali chiqaradi. Kasallik asosan kuz, qish va bahor fasllarida qayd etiladi. Kasallikka 6-oylikdan 2- yoshgacha bo'lgan qoramollar sezgir hisoblanadi. Virusli diareyada qoramollarning kasallanish darajasi fermalarda 2-100%, o'lim 2-90% tashkil etadi. Kasallikning yashirin davri 2-14 kun orasida o'zgarib turadi. Kasallikning yashirin, o'tkir, yarim o'tkir va surunkali shakllari mavjud. Katta yoshdagi hayvonlarda kasallikning klinik belgilari kuzatilmaydi. Yarim o'tkir shakli haroratning 39,7-40,0⁰ C gacha ko'tarilishi, ishtahani qisman yoki to'liq yo'qolishi, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining giperemiya shaklida tez o'tadigan shikastlanishlari bilan tavsiflanadi. Eroziya va oshqozon yarasi, ba'zida burun bo'shlig'idan nafas olish, yo'tal va qisqa muddatli (12-24 soat) diareya qayd etiladi. Kasallik 2-4 kun davom etadi. O'tkir shakli to'satdan, yuqori harorat 40,5-42,5⁰ C o'rtacha yoki og'ir mayuslik, taxikardiya, nafas qisilishi, ishtahaning yo'qolishi bilan tavsiflanadi. Og'iz bo'shlig'ining shilliq qavatida giperemiya va eroziya seziladi, ular oxir-oqibat kulrang qoplamalar bilan qoplangan yaralarga aylanadi. Burun oynasida, burun teshigida va qinda yaralar hosil bo'ladi. Ich ketishining aniq belgilari asosan buzoqlarda kuzatiladi. Najas massalari suyuq, hid, gaz pufakchalari, shilliq va qon aralashmasi bilan tavsiflanadi. Bug'oz hayvonlarda abortlar paydo bo'lishi mumkin. Diareya ba'zan 30 kungacha davom etadi va odatda hayvonlarning o'limi bilan tugaydi. Surunkali shaklida odatda epizootik epidemiyaning oxirida kuzatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ikki yoshdan oshgan hayvonlarda kasallik, qoida tariqasida, subklinik tarzda davom etadi va ko'pincha sezilmaydi. Xo'jaliklarda qoramollar qon zardobida diareya virusiga qarshi antitelolar mavjudligi o'rganildi.

Samarqand viloyati fermer xo'jaliklaridagi qoramollarning qon zardobini monitoring qilishda olingan tekshirish natijalari (IFT).

1-jadval

Xo'jaliklar nomi	Teshirilgan hayvon bosh soni	Virusli diareya	
		Ijobiy natija	%
Kattaqo'rg'on tumani "Farovon Gold chorvasi"	19	12	63,1
Ishtixon tumani "Qaxramon"	18	15	83,3
Oqdaryo tumani "Kelajak"	21	13	61,9
Payariq tumani "Xushvaqt Abdullaev"	17	15	88,2
Ishtixon tumani "Dutorchi"	12	10	83,3
Nurobod tumani "Nurli musaffo diyor"	10	7	70
Jami:	97	72	74,2

1-Jadvalda berilgan tekshirish natijalari asosida jami 6 ta tumandagi tekshirilgan qoramollarda 61,9 % dan-88,2% gacha virusli diareyaning uchrashi aniqlandi. 97 ta qon zardobi namunasini tekshirish natijasida o'rtacha qoramollarning zararlanishi 74,2 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida tahlil qilganimizda qoramollarning virusli diareya kasalligi bilan zararlanishi Kattaqo'rg'on tumani "Farovon Gold chorvasi" qoramolchilik fermer xo'jaligida 63,1%, Ishtixon tumani "Qaxramon" fermer xo'jaligida 83,3%, Oqdaryo tumani "Kelajak" chorvachilik fermer xo'jaligida 61,9% Payariq tumani "Xushvaqt Abdullaev" chorvachilik fermer xo'jaligida 88,2 % Ishtixon tumani "Dutorchi" fermer xo'jaligida 83,3%, Nurobod tumani "Nurli Musaffo diyor" fermer xo'jaligida 70% ni tashkil etdi.

Bu esa kasallikning oldini olishda IFT usulida virusli diareyaning tarqalishini o'z vaqtida to'g'ri aniqlash nihoyatda muhim ekanligini bildiradi.

Qoramollar qon zardobida virusli diareya kasalligi qo'zg'atuvchisiga qarshi antitelolarni mavjudligi diareya virusi bilan ularning zararlanganligini va tabiatda keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Bunda qoramollarni tabiiy rezistentligini oshirish, to'g'ri ratsion asosida boqish, zoogigienik talablar darajasida saqlash, kasal va klinik sog'lom qoramollarni ajratish hamda kasallikka qarshi kurash choralarini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Samarqand viloyatining Ishtixon tumani "Qaxramon", Payariq tumani "Xushvaqt Abdullaev" va Ishtixon tumani "Dutorchi" fermer xo'jaliklarida ijobiy natijalarning ko'rsatkichi yuqori bo'lib, 83,3-88,2% ni, Kattaqo'rg'on tumani "Farovon Gold chorvasi", Oqdaryo tumani "Kelajak" va Nurobod tumani "Nurli musaffo diyor" fermer xo'jaliklarida esa nisbatan pastroq bo'lib, 61,9-70% ni tashkil etdi. Tekshirilgan qoramollar diareya virusi bilan zararlangan va bu virus ushbu xo'jaliklarda mavjud bo'lib, kasallikning maxsus oldini olish chora-tadbirlari o'tkazilmasa qulay sharoitlar paydo bo'lganda qoramollar orasida yalpi kasallanish holatlari kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdusattorov A, Amirov A.I., "Qoramollarning virusli diareya kasalligining epizootologik, klinik va patologoanatomik xususiyatlari" Veterinar maslahati Veterinariya va Chorvachilikni Rivojlantirish Qo'mitasi 22 Avg 2018- B. 1
2. Salimov X.S, Salimov B.S, Qambarov A.A. Epizootologiya/ Darslik Samarqand–2021. – S. 356-361
3. Saliki J.T, Dubovi E.J "Laboratory diagnosis of bovine viral diarrhea virus infections" Vet Clin North Am Food Anim Pract .2004 Mar; Vol20(1). –P. 69-83.
4. Shapulatova Z. J., Ruzikulova U.X "Virusli diareya kasalligining klinik belgilari va laboratoriya diagnostikasi" Veterinariya meditsinasi Maxsus son 5, 2023 yil. 303-304 bet.
5. Shapulatova Z. J., Ruzikulova U.X "Samarqand viloyati chorvachilik xo'jaliklarida virusli diareya kasalligini tarqalish dinamikasini o'rganish natijalari" Veterinariya meditsinasi Maxsus son 3 2023 yil 70-71 bet

6. Shapulatova, Z., Yunusov, H. B., Eshkuvvatov, R. N., Ruzikulova, U. H., & Ergashev, N. N. (2023). Prevalence of the Viral Infections Among Calves in Livestock Farms Located in the Samarkand Region of Uzbekistan. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE*, 2(6), 67-73.

7. Глотов, А.Г. Респираторные болезни телят вирусно-бактериальной этиологии / А.Г. Глотов, Т.И. Глотова; Рос. акад. с.-х. наук. Сиб. отд-ние, ГНУ ИЭВСиДВ. Новосибирск: Агрос, 2008. - 258 с.

8. Шапулатова З. Ж., Юнусов Х. Б., Красочко П. А. Разработка средств и способы диагностики, специфической профилактики заболеваний органов дыхания и пищеварения вирусно-бактериальной этиологии в хозяйствах республики узбекистан //agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. – 2022. – с. 470-475.

9. Шапулатова, З. Ж., Эргашев, Н. Н., & Рузикулова, У. Х. Ассоциативные инфекции телят, вызванные рота-, коронавирусами и вирусом диареи в хозяйствах республики Узбекистан. *UxeXc [Sc [re [TT [ùe [US jacUSj [^]] Tq^ XeX*, 78.